

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MA‘RIFIY-PUBLITSISTIK QARASHLARI VA BOLALAR JURNALISTIKASI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Muxabbat Beqqulova Muxamadali qizi

O‘zJOKU 2-bosqich magistranti

Orcid:0009-0003-3117-8397

muhabbatbekqulova@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:12.01.2026

Revised: 13.01.2026

Accepted:14.01.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*Bolalar
jurnalistikasi;
jadidchilik; ma‘rifat;
Mahmudxo‘ja
Behbudiy; matbuot;
pedagogik qarashlar;
ta‘lim islohoti*

Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma‘rifiy-publitsistik qarashlari, uning jadidchilik harakati doirasidagi faoliyati hamda bolalar jurnalistikasi taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Uning ta‘lim va ma‘rifatga oid g‘oyalari, yosh avlod tarbiyasiga qaratilgan publitsistik chiqishlari, maktab islohoti, qizlar ta‘limi va zamonaviy fanlarni targ‘ib etish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda Behbudiyning matbuotni pedagogik va ijtimoiy ongini shakllantiruvchi vosita sifatida qo‘llagani, uning qarashlari bugungi bolalar jurnalistikasi va raqamli media muhitida ham dolzarb ekani asoslab beriladi. Maqola natijalari Behbudiy merosining zamonaviy bolalar jurnalistikasi rivoji uchun metodologik va g‘oyaviy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi

Kirish

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) Markaziy Osiyoda jadidchilik harakati yetakchilaridan biri sifatida tanilgan, matbuot va jurnalistika orqali milliy ma‘rifat va ijtimoiy uyg‘onishni targ‘ib qilgan mashhur ziyoli, pedagog va jurnalistdir. Uning publitsistik merosi nafaqat o‘tmishdagi jamiyatni uyg‘otishda, balki yosh avlod tarbiyasi va bolalar jurnalistikasi rivojida ham muhim o‘rin tutadi. Behbudiyning asarlari va gazetadagi

maqolalari orqali u ilmiy-ma'rifiy g'oyalarni keng ommaga yetkazish, savodsizlik va e'tiqodiy cheklovlarga qarshi kurashish, shuningdek, milliy ong va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga intilgan.

Zamonaviy davrda bolalar va yoshlar auditoriyasini qamrab oluvchi media platformalarining rivojlanishi, raqamli axborot maydonining kengayishi Behbudiyning ma'rifiy-publitsistik merosini yangi kontekstda tatbiq etish imkonini yaratadi. Bugungi bolalar jurnalistikasi, shu jumladan onlayn nashrlar va interaktiv media vositalari, Behbudiyning ta'lim, ma'rifat va ijtimoiy uyg'onish g'oyalarini amaliyotga tatbiq qilishda metodologik asos sifatida qaralishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi — Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifiy-publitsistik faoliyatini tahlil qilish, uning bolalar jurnalistikasi taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash va bugungi zamonaviy media kontekstida merosining amaliy ahamiyatini ko'rsatishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Behbudiyning publitsistik va ma'rifiy qarashlarini o'rganish;

Unga tegishli matbuot nashrlari va bolalar auditoriyasiga yo'naltirilgan asarlarini tahlil qilish;

Zamonaviy bolalar jurnalistikasi va raqamli media bilan uyg'unligini aniqlash;

Behbudiyning merosini bugungi media va pedagogik faoliyatga tatbiq qilish imkoniyatlarini belgilash.

Asosiy qism:

1. Behbudiyning jadid pedagogik qarashlari va yosh avlod tarbiyasi

Mahmudxo'ja Behbudi jadidchilik harakati yetakchilaridan biri sifatida, Markaziy Osiyoda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va yosh avlodni ilmiy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashga katta hissa qo'shgan. U o'z publitsistik faoliyatida nafaqat jamiyatdagi savodsizlik va e'tiqodiy cheklovlarni tanqid qilgan, balki usul-i jadid maktablarining samaradorligini targ'ib qilgan va ularning pedagogik metodlarini keng ommaga yetkazgan.

Behbudiyning qarashlariga ko'ra, ta'lim tizimi quyidagi asosiy printsiplarga tayangan bo'lishi lozim edi:

Zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish — maktabda o'quvchilarning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

Axloqiy va ma'rifiy tarbiya — bolalarga milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va jamiyatga mas'uliyat ruhini singdirish;

Ayollar ta'limiga alohida e'tibor — Behbudiy qizlarning ta'lim olishini jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlod tarbiyasi uchun zarur deb hisoblagan;

Ilm-fan va adabiyotning ahamiyati — maktablarda zamonaviy fanlar, adabiyot va tarixni o'rgatish orqali o'quvchilarning dunyoqarashi kengaytirilgan.

Behbudiyning publitsistik merosi aynan shu pedagogik qarashlarni jamoatchilikka yetkazishda muhim vosita bo'lgan. Uning "Oina" gazetasi va boshqa nashrlari orqali yosh avlodni ilmiy-ma'rifiy g'oyalar bilan tanishtirish, ular orasida savodli, fikrlay oladigan va milliy ongli shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan.

Shuningdek, Behbudiyning faoliyati tarixiy nuqtai nazardan ham muhimdir: U Markaziy Osiyoda bolalar va yoshlar auditoriyasiga yo'naltirilgan ilk publitsistik materiallarni yaratgan va matbuotni pedagogik vosita sifatida ishlatgan. Shu sababli uning merosi bugungi kunda ham bolalar jurnalistikasi va pedagogik faoliyatda metodologik asos sifatida qaraladi.

2. Jurnalistika orqali ta'lim va ma'rifiy islohotlarga ahamiyat berish

"Behbudiy jurnalistikani ta'lim va ma'rifat vositasi sifatida ko'rgan va uni ijtimoiy islohotlar uchun samarali instrument sifatida ishlatgan. Uning maqolalarida u zamonaviy ta'limning ahamiyatini doimiy ravishda ta'kidlab, eski ta'lim tizimini tanqid qilgan. U savodsizlikni jamiyat taraqqiyotining eng katta to'sig'i deb bilgan va bu muammodan xalos bo'lish uchun ta'limni rivojlantirish zaruriyatini urg'u bilan ko'rsatgan.

Behbudiyning qarashlariga ko'ra, ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik metodlar joriy etilishi lozim edi. Shu maqsadda u usul-i jadid maktablarini targ'ib qilgan, bu maktablarda ilmiy fanlar, matematikadan boshlang'ich va tabiat fanlari darslari o'tilishi, shuningdek, o'quvchilarning fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi kerakligini ta'kidlagan.

Shuningdek, Behbudi qizlar ta'limining muhimligini ham yoritgan, chunki u ma'lumki, bilimli ona keyingi avlodni tarbiyalashda asosiy rol o'ynaydi deb hisoblagan. Shu nuqtai nazardan, uning jurnalistikadagi maqolalari faqat erkaklar auditoriyasiga emas, balki barcha yosh va jinsdagi o'quvchilarga yo'naltirilgan."⁴¹

Behbudiyning jurnalistikasi shuningdek, ta'lim tizimidagi yangiliklarni, pedagogik islohotlarni va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiladigan ilmiy g'oyalarni keng ommaga

⁴¹ Sharopov S. F. Mahmudkhoja Behbudi's contribution to the field of press and journalism / S. F. Sharopov // International Islamic Academy of Uzbekistan, Department of Islamic Studies. — 2025. — Vol. 3, Issue 2, February. — P. 263–266. — ISSN 2938-379X.

yetkazishga qaratilgan edi. U maqolalar orqali o'quvchilarga zamonaviy ilm-fan, adabiyot va milliy tarix haqida tushuncha berishga, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga yordam bergan.

"Uning ta'lim va islohotlarni targ'ib qiluvchi jurnalistikasi bugungi kunda ham bolalar va yoshlar jurnalistikasi faoliyati uchun metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu orqali yosh avlodni ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy ong ruhida tarbiyalashning muhimligi ochib berilgan."⁴²

Behbudiyning jurnalistikasi bugungi bolalar jurnalistikasi uchun muhim pedagogik va metodologik manba sifatida qadrlanadi. U orqali yosh avlodning ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy ong ruhida tarbiyalanishi samarali tarzda ta'minlanadi.

3. Bolalar jurnalistikasi rivojida Behbudiyning merosi

Ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudi o'zi ilgari surgan "Dunyoda turmak uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilm va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur" degan haqqoniy fikrlar asosida jadidlarning sa'yi xarakatlari bilan tashkil topayotgan yangi maktablarda bolalarga dunyoviy fanlarni o'qitish g'oyasini ilgari surdi. Aynan shu g'oya Turkiston ahlining ongu shuurini uyg'otishga da'vat etgani bejiz emas albatta. Aynan jadid ziyolilarining, ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiyning sa'yi harakatlari o'laroq milliy maktablarda dunyoviy fanlarni o'qitish ham yo'lga qo'yildi. Behbudiyning fikricha ma'rifat uchun birgina maktabkifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsun. Mahmudxo'ja Behbudi "Teatr -bu ibratxonadir" degan g'oyani ilgari suradi va o'zbek milliy dramaturgiyasiga ham tamal toshini qo'yadi. Jadidlar zulm va zo'ravonlikni, sinfiy kurashni, millatni qoq ikkiga ajratib orasiga nifoq va dushmanlik solishni rad etdilar va haq bo'lib chiqdilar. Bugun ular muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo'ldi. Ular jon fido etgan istiqlol avlodlariga nasib etdi. Millat va vatan mustaqilligi yo'lida fido bo'lganlar esa shu millat

⁴² Sharopov S. F. Mahmudkhoja Behbudi's contribution to the field of press and journalism / S. F. Sharopov // International Islamic Academy of Uzbekistan, Department of Islamic Studies. — 2025. — Vol. 3, Issue 2, February. — P. 263–266. — ISSN 2938-379X.

va vatan umri qadar boqiydir. Yangi jamiyat bunyodkori bo'lmish yangi insonni tarbiyalashda jadid bobolarimizning bizga qoldirib ketgan ma'naviy-ma'rifiy va adabiy meroslarining qiymati esa bugungi kunda g'oyatda muhimdir."⁴³

Mahmudxo'ja Behbudi va jadid ziyolilarning sa'y-harakatlari orqali milliy maktablarda dunyoviy fanlar o'qitilishi yo'lga qo'yildi va yosh avlodning ilmiy-ma'rifiy dunyoqarashi kengaytirildi. Behbudiyaning teatr va dramaturgiya g'oyalari ham milliy madaniyatni rivojlantirish va insoniy qadriyatlarni shakllantirishda muhim vosita bo'ldi. Jadidlarning ma'naviy-ma'rifiy va adabiy merosi bugungi kunda yangi jamiyat va yosh avlodni tarbiyalashda ahamiyatini yo'qotmagan va millat taraqqiyoti uchun bebaho manba hisoblanadi.

"U o'z maqolalarida maktab ta'limini isloh qilish, yoshlarga zamonaviy bilimlar berish masalalariga alohida urg'u beradi. Eski usulda ta'lim olayotgan bolalarning faqatgina diniy bilimlar bilan cheklanib qolayotganini tanqid qiladi va zamonaviy fanlar — geografiya, matematika, tarix, tibbiyot, xorijiy tillarni o'qitish zarurligini ta'kidlaydi. Behbudi uchun maktab faqat bilim beruvchi emas, balki jamiyatni yangilovchi, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy shaxsni tarbiyalovchi institutdir.

Xususan, u o'zining 1914-yilda "Oyna" jurnalida chop etilgan "Yoshlarga murojaat" maqolasida ota-onalarga qarata shunday yozadi:

"Bas, ma'lum hozirgi zamon ishlariga — xoh tijorat va hukumat va san'atxonalarga bo'lsun — kirib vazifa olmoqqa va ish qilmoqqa ilmi zamoni degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan. Bas, siz muhtaramlar ham o'z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko'ra taraqqiy etsa, din va millatga xizmat etsa, shu ilmi zamoniyni tahsil qilmoq uchun harakat qilmog'ingiz lozimdur".

Behbudi, shuningdek, qiz bolalarning bilim olishi zarurligi borasida ham o'z fikrlarini bayon etgan. Xotin-qizlar savodi masalasi o'sha davrning muhim muammolaridan biri edi. Shu sababdan matbuotda xotin-qizlar savodini oshirish, ularni maktablarga jalb qilish masalalari bot-bot ko'tarib borilar edi. Xususan, "Turkiston viloyatining gazetisi"da Fayzulla imzosi bilan e'lon qilingan "Xotunlarga ilm lozimmi?" maqolasida onalarimizning savodsizligi, ularning hatto "Tarbiyai atfol"ni ham bilmasliklari haqida fikr yuritiladi. Shu

⁴³ Bekhbudi M. A. Mahmudkhoja Bekhbudi — great teacher, writer, publicist, dramatist and public figure, one of the leaders of the Jadid movement / M. A. Bekhbudi // Tamaddun Nuri. — 2023. — №1. — S. 117. — URL: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tmj/article/view/346/202>

bois ayollarni o'quv-o'qituv ishlariga jalb qilish kerakligi aytiladi va bu borada Mahmudxo'ja Behbudiyning fikri so'raladi.

Behbudiyl Turkistonning taniqli ulamolaridan biri sifatida o'z javobini Anas ibn Molikdan rivoyat qilingan "Talabul ilm har muslim va muslima g'a farzdur" degan hadis bilan boshlaydi. So'zining davomida Qur'onda ayollarga xos hukmlardan tashqari barcha ishda ayol va erkakka bir xil xitob qilinganini, "xotinlarning o'qimoqlari lozimligiga yolg'iz ko'r va munofiq mutaassib inkor yoki shubha etishini" ta'kidlaydi."⁴⁴

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiyning ilm-ma'rifatga doir qarashlari bolalar jurnalistikasi taraqqiyotida muhim nazariy va g'oyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Uning bolalarni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash, mustaqil fikrlashga yo'naltirish haqidagi qarashlari bolalar uchun mo'ljallangan nashrlar mazmunida ta'limiylik va tarbiyaviylik uyg'unligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Behbudiyl ilgari surgan g'oyalar bolalar jurnalistikasining asosiy vazifasi — yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish, bilimga qiziqishini oshirish va ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini yaqqol namoyon etadi.

Tavsiyalar:

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifiy-publitsistik merosini bolalar jurnalistikasi kontekstida tizimli o'rganish va uning g'oyalari asosida bolalar uchun mo'ljallangan ta'limiy-media materiallar yaratish tavsiya etiladi.

Zamonaviy bolalar jurnalistikasi va raqamli media platformalarida Behbudiyl ilgari surgan ta'limiylik va tarbiyaviylik tamoyillarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Jurnalistika va pedagogika yo'nalishlaridagi ta'lim dasturlariga Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik faoliyati va bolalar jurnalistikasi rivojiga oid qarashlarini qamrab oluvchi mavzularni kiritish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Bekhbudiyl M. A. Mahmudkhoja Bekhbudiyl – great teacher, writer, publicist, dramatist and public figure, one of the leaders of the Jadid movement / M. A. Bekhbudiyl // Tamaddun Nuri. – 2023. – № 1. – P. 117. – URL: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tmj/article/view/346/202> .

⁴⁴ Tuxtashev J. Q. Mahmudxo'ja Behbudiyl maqolalarida ilm-ma'rifat masalalari / J. Q. Tuxtashev // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2025. – № 2 (April). – B. 110–111

2.Sharopov S. F. Mahmudkhoja Behbudi's contribution to the field of press and journalism / S. F. Sharopov // International Islamic Academy of Uzbekistan. Department of Islamic Studies. – 2025. – Vol. 3, Issue 2 (February). – P. 263–266. – ISSN 2938-379X.

3.Tuxtashev J. Q. Mahmudxo'ja Behbudiyl maqolalarida ilm-ma'rifat masalalari / J. Q. Tuxtashev // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2025. – № 2 (April). – B. 108–114. – ISSN 3060-4923.

